

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O'ZBEK TILINING XORIJDA O'QITILISHI: TA'LIM NAZARIYASI VA AMALIYOTI**

**XALQARO ILMIY-AMALIY ONLAYN ANJUMAN MATERIALLARI**

**2024-yil 16-aprel**

**Toshkent – 2024**

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-iyuldagi PQ-200 qarori ijrosini ta'minlash to'g'risi"dagi 2024-yil 18-yanvarda tasdiqlangan 16-sonli buyrug'iga 1-ilovasidagi 2024-yilda xalqaro miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy texnik tadbirlar rejasi asosida Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2024-yilning 16-aprelida "O'zbek tilining xorijda o'qitilishi: ta'lim nazariyasi va amaliyoti" Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani o'tkazildi.

Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlandi, maqolalarda o'zbek tilining xorijiy til sifatida o'qitishda qo'llanayotgan va foydalanish mumkin bo'lgan zamonaviy metodik yondashuvlar, axborot va pedagogik texnologiyalar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha o'zbek tilidan dars beradigan taniqli olimlar, metodistlar, o'qituvchilar bilan bir qatorda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

#### **Taqrizchilar:**

**G.Asilova** – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**G.Norimova** – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

#### **Tahrir hay'ati:**

**S.Muhamedova, N.Musulmanova, X.Kadirova, O.Abduhakimova, Y.Shirinova,**

**O.Turakulova, D.Elova, G.Iskandarova, Y.Do'smurodova**

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2024-yil 25-apreldagi 9-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.

## O'ZBEK TILIDA MUROJAAT SHAKLLARI VA ULARNING GENDER XOSLANISHI

Nasim Xo'jayev<sup>1</sup>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada biz o'rganmoqchi bo'lgan obyekt bu - til hodisalaridan biri bo'lgan murojaat shakllari, ya'ni fatik kommunikatsiyadir. Fatik kommunikatsiya jarayonida adresant va adresatlarning jins jihatidan farqlanishi sodir bo'ladigan nutqiy vaziyatda tahlil qilinadi. Murojaat shakllarining ijtimoiy xususiyatlari, undalma va murojaatning umumiy yoki farqli tomonlari, ifodalanish usul hamda vositalari, murojaat ifodalanishining ekstralingvistik va psixolingvistik vosita omillari, murojaat leksikanining tematik tasnifi yoritib beriladi.

**Kalit so'zlar.** *murojaat shakli, undalma, fatik kommunikatsiya, adresat, adresant, muammoli ta'lim.*

**Annotation.** The object we want to study in this article is the form of reference, which is one of the phenomena of language, that is, phatic communication. Phatic communication is analyzed in a speech situation where the gender difference between the addresser and the addressee occurs. Social characteristics of forms of address, common or different aspects of motivation and appeal, methods and means of expression, extralinguistic and psycholinguistic tools and factors of expression of appeal, thematic classification of address lexicon are explained.

**Key words.** *form of appeal, motivation, phatic communication, addressee, addressee, problem education.*

Yer yuzida yashovchi jonzotlardan biri bo'lgan inson atalmish majudot o'zining aqliy va nutqiy takomili bilan boshqalaridan ajralib turadi. Uning aloqamunosabat vositasi bo'lgan tilga ega ekanligi o'z maqsad muddaolarini, istak, orzu-xohishlarini namoyon qilish orqali boshqa turdoshlari bilan muloqot qilishini, ma'lumot-axborot almashishini ta'minlaydi. Bu jarayon hayotiy qonuniyatlarni muvozanatda tutib turishga xizmat qiladi.

Inson ham boshqa barcha tirik mavjudotlar singari bir turga mansub bo'lsada ikki jinsda farqlanadi. Ular nutqiy faoliyatidan kelib chiqqan holda tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham farqli jihatlariga ega. Tildagi lisoniy va nolisoniy birliklardan nutq jarayonida foydalanishda ham sezilarli tafovutlar

---

<sup>1</sup> Nasim Xo'jayev – *Shahrisabz davlat pedagogika instituti, O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi. Iqtibos uchun:* Xo'jayev, N. (2024) O'zbek tilida murojaat shakllari va ularning gender xoslanishi. // "O'zbek tilining xorijda o'qitilishi: ta'lim nazariyasi va amaliyoti" nomli xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjuman materiallari. 2024-yil 16-aprel. Toshkent – 2024. 61-65 b.  
DOI: 10.52773/tsuull.conf.2024.16.4/FBVT5751

mavjud. Shuning uchun ko'pgina lisoniy va nolisoniy birliklar u yoki bu jinsga tegishli ekanligi bilan gender jihatdan xoslanadi.

Ushbu maqolada biz o'rganmoqchi bo'lgan obyekt bu - til hodisalaridan biri bo'lgan murojaat shakllari, ya'ni fatik kommunikatsiyadir. Fatik kommunikatsiya jarayonida adresant va adresatlarning jins jihatidan farqlanishi sodir bo'ladigan nutqiy vaziyatda yaqqol aks etadi. (Tadqiqotimiz jarayonida sotsiolingvistikning tarkibiy qismi bo'lgan ushbu hodisani o'qitilish masallalariga ham etibor qaratamiz.)

Izohli lug'atda "Murojaat" so'ziga shunday ta'rif beriladi:

-ko'rib chiqish, taqqoslash;

-biror narsa so'rash, ishini qayta ko'rish;

-birovga qarata aytilgan gap, qilingan da'vat, chaqiriq. [O'zbek tilining izohli lugati 2006, 645]

Ma'lumot-axborot almashinish jarayoni, ya'ni muloqot I shaxs-so'zlovchi va II shaxs-tinglovchi o'rtasida o'zaro dialog, polilog (ba'zan monolog ko'rinishida so'zlovchining o'ziga murojaati) shaklida kechadi va uni mazmunli, chiroyli, to'g'ri amalga oshirish uchun turli unsurlardan: mimika (yuz harakati, qo'l harakati), grammatik vositalar (morfema, xususan, kichraytirish-erkalash, ko'plik-hurmat morfemalari), leksik birliklar (ko'chma ma'noli, bo'yoqdor so'zlar)dan unumli foydalanish muhim ahamiyatga egadir.

Murojaat shakli (fatik kommunikatsiya) ham nutqiy hodisanig bir qismi bo'lib, murojaat, asosan, kommunikantlar o'rtasida tinglovchi diqqatini tortish uchun xizmat qiladi. Til orqali ifodalanadigan muloqot jarayonida murojaat shakli tinglovchi yoki murojaat qilinayotgan shaxsga ilk ma'lumot yetkazish vazifasini o'taydi.

M. Qubonova bir maqolasida: "...jamiyatning barcha a'zolari uchun umumiy va tushunarli til bo'lmasa, jamiyatdagi ishlab chiqarish to'xtaydi, jamiyat sifatida yashash tugaydi va u parchalanib ketadi,"- deb ta'kidlaydi [Qurbonova 2014, 43]. Darhaqiqat til bugungi jamiyatlarning yashash tarzi, taraqqiyot omili. Aslida, ma'no va tushunchasiz til mavjud bo'lmaydi. Kishilar o'z murojaat va munosabatlarida ana shu ma'noga asoslanadilar. Inson va jamiyatning o'zi ham ma'no va tushunchalar, til va nutq tufayli mavjudligini etirof etmaslikning iloji yo'q.

Murojaat shakllarining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari Sh. Iskandarova, S. Mo'minov [Mominov 2000], M. Sulaymonov, Z. Akbarovalarning ilmiy ishlarida qayd qilingan Z. Akbarova tomonidan murojaat shakllarining ijtimoiy xususiyatlari, undalma va murojaatning umumiy yoki farqli tomonlari, ifodalanish usul hamda vositalari, murojaat ifodalanishining ekstralingvistik va psixolingvistik vosita, omillari, murojaat leksikanining tematik tasnifi keng yoritib berilgan. Tadqiqotchi Z. Akbarova undalma va murojaatning farqli va o'ziga xos tomonlarini yoritir ekan, murojaat ifodalovchi so'z ham mohiyatan grammatik aspektda yondashilsa, u undalmaga to'la mos tushadi, lekin mazmunan murojaat obyektini ifodalovchi so'z murojaat shakli sifatida,

so'zlovchining nutqi qaratilgan shaxsnigina emas, har qanday obyektни ifodalaydi degan fikrni bildiradi [Akbarova 2007, 21].

Yuqoridagi fikrlarga asoslanadigan bo'lsak, murojaat shakllari undalmaga nisbatan kengroq tushuncha ifodalaydi. Murojaat shakllarini ijtimoiy-lisoniy jihatidan tahlil qilganda, u adresant va adresat o'rtasida aloqani vujudga keltirish bilan bir qatorda, suhbatning qanday davom etishini, kommunikantlarning bir-biriga bo'lgan turli munosabatini, hurmati, yoshi, jinsi, shu bilan birga, milliy madaniyatini ham aks ettiradi.

Til orqali ifodalanadigan muloqot shaklida murojaat shakli tinglovchi yoki murojaat qilinayotgan shaxsga ilk ma'lumot yetkazish vazifasini o'taydi. Sotsiolingvist olimlarning murojaat so'zlarining qo'llanishiga oid chiqargan xulosalarning eng e'tiborga molik jihati shunda-ki, har qanday murojaat shaklining qanday sharoit, qaysi o'rinda qo'llanishiga oid qat'iy qoidalar mavjudligidir [Versehueren 2000. 313 ].

Albatta, o'rinli qo'llangan murojaat shakli muloqotning silliq va samarali o'tishini ta'minlaydi, aksincha, noo'rin shakl esa muloqotni o'z yo'sinidan chiqarib, salbiy ta'sir qilish vositasiga aylantirishi mumkin. Muloqotning samarali kechishi uchun so'zlovchi tinglovchining yoshi, lavozimi, mavqei hamda o'zaro aloqa va suhbat vaziyatini e'tiborga olgan holda tanlamog'i lozimdir. Tinglovchi so'zlovchi va murojaat qaratilgan shaxs(lar) o'rtasidagi munosabatni, o'zaro kayfiyat va tuyg'ularni qo'llanayotgan murojaat shakliga qarab oson aniqlab olishi mumkin bo'ladi .

Murojaat shakllari obyektning aniq yoki noaniqligiga ko'ra ikki turga ajratiladi:

a) mavhum murojaat shakllari (ey, hoy, sen, siz);

b) konkret murojaat shakllari. Murojaatning bu turida ism, laqab, taxallus, insonga xos bo'lgan belgi-xususiyat bildiruvchi leksik, insonni atovchi nominativ birliklar murojaat shakli vazifasini bajaradi.

Murojaat shakllarini jinsga ko'ra tahlil qilganda, erkak va ayol shaxsining nutqida qo'llaniladigan murojaat shakllari hamda erkak va ayol shaxsiga nisbatan qo'llaniladigan murojaat shakllari tarzida tahlil qilish kerak. Jumladan, ayollar nutqini mulozamat-manzirat shakllarisiz tasavvur etish imkonsiz, chunki bunday so'zlar ayollar nutqining shirin, muloyim bo'lishini ta'minlaydi. Ayniqsa, o'zbek ayoli bunday so'zlarga kundalik turmush tarzida deyarli doim murojaat qilib turadi. Ushbu holatni A.Oripov qalamiga mansub ushbu parcha orqali tahlil qilishga harakat qilamiz:

*Samoviy mehmon, besh donishmand va farrosh kampir qissasi"* she'rida shunday misralar bor:

– *Voy bechora bolaginam,  
Dard zaptiga opti-ku!  
Holdan toyib boshqa ko'zi  
Yumilib ham qopti-ku!*

*Rangini ko'r somon deysan,  
Suvdanmikan yo o'tdan!-  
Shudoq deya farrosh kampir  
Bo'la ketdi **girgitton**. [Oripov 2019, 228].*

Ushbu parchada bir o'zbek ayolining allaqaysi sayyoradan yerga qulab tushib chalajon bo'lib yotgan maxluq sifat bir mavjudodga nisbatan sof onalik mehri bilan girgitton bo'lib g'amxo'rlik qilayotgani aks etadi. - *Voy bechora **bolaginam***, misrasida onaning chalajon kimsaga nisbatan achinishga yo'g'rilgan ehtirosli murojaati anglashiladi. Bunday murojaat faqat ayollarga xos ekanligi misrada aniq, ravshan ko'rinib tiribdi. Aslida falokat joyida bir nechta erkak olimlar ham ishtirok etadi. Lekin ular da biz bunaqa his aks etganini sezmaymiz. Aksincha ular "samoviy mehmonni titkilayverib, tekshirayverib, battar holdan toydirishadi. Erkaklar tabiatan ayollarga qaraganda qo'rs va qo'polroq bo'lishadi. Shuning uchun ham ular olim bo'lishsa ham yaradorni o'ziga keltirisholmaydi. Aksinch, ular eplolmagan ishni farrosh xotin qoyil qilib bajaradi:

Kampir bilmas, kim u maxluq,  
Yo bilsa ham unutdi.  
Ichaqolgin, ***jon bollam***, deb  
Hatto unga suv tutdi.  
O'shanda deng haligining  
Qon chopdiya yuziga.  
Duvva-duvva yosh ham keldi  
Bittagina ko'ziga. [Oripov 2019, 228].

Kampirning uchinchi misrada ***jon bolam*** deya mehr ko'rsatishi, hatto, haligi chalajon bir ko'zli maxluqni tiriltiradi. Ayollarga xos kuyunchaklik, onalarcha mehribonlik emotsiyasi shu kichkinagina parchada to'laligicha namoyon bo'lgan. Bunday muomala, murojaat, munosabat shakli faqat ayol jinsigagina xos gender xususiyatdir..

Keyingi she'riy parchaga e'tibor qaratamiz:  
*Kechir, **onam**!  
Ko'zingda g'am,  
Azob bo'ldim joningga  
Bu kun bayram,  
Men bu kun ham  
Bo'lolmadim yoningda...*"[Vohidov 2019, 361]

Ushbu parchada oqil farzndning (monolog tarzida) onasiga qarata aytgan dardli, alamli murojaati aks etgan (parcha E.Vohidovning "Ruhlar isyoni" dostonida mahbuslikda yotgan hind shoiri Nazrul Islom tilidan berilgan). Birinchi misradagi ***onam*** so'zi grammatik jihatdan qaralsa undalma, ammo bu so'zga mantiqan e'tibor qaratilsa unda dardni, alamni va yana alamga yo'g'rilgan mehrni

guvohi bo'lamiz. Birgina **onam** so'zida aks etgan ana shu nozik ma'noviy qirralar hamda uning emotsional jihatlarini murojaat shakli sifatida o'rganiladi.

Yuqoridagi parchalarda biz murojaat shakllarining jinsga xos jihatlarini yaqqol guvohi bo'ldik. Shuning bilan birga grammatik jihatdan undalmaga teng bo'lsada, lekin mazmunan murojaat obyektini ifodalovchi so'z murojaat shakli sifatida, so'zlovchining nutqi qaratilgan shaxsnigina emas, balki har qanday obyektini ifodalashiga ishonch hosil qildik. Biz maqola davomida murojaat shakllarining 1-2tagina unsurlari bilan tanishdik. Murojaat shakllarining biz tadqiq qilmagan hali ko'plab jihatlarini borki, ularni tadqiq va tahlil qilish yangi izlanuvchilar hukmiga havola. Yana shuning bilan birga sotsiolingvistika darslarida murojaat shakllarini muammoli ta'lim asosida o'rgatish metodik jihatdan yaxshi samara beradi deb o'ylaymiz.

Murojaatlar tizimidagi evolyutsiya ijtimoiy tuzilishdagi o'zgarishlarni, ma'lum bir kommunikativ akt paytida u yoki bu shaklni tanlashni belgilaydi hamda ushbu tanlovni belgilaydigan ijtimoiy vaziyat parametrlarini ko'rsatadi. Diaxronik ma'noda leksik vositalarni o'rganishning ahamiyati, til va jamiyatning o'zaro ta'siri tarixi nechog'li muhim ekanligini anglagan holda, murojaatlarni nafaqat kommunikativ pragmatik, shuningdek tarixiy-tadrijiy rivojlanishi jihatidan ham kognitiv asoslarini tadqiq qilish lozim. Buni ayniqsa, muammoli-modulli yondashuv asosida yotgan didaktik nazariyalar va uslubiy g'oyalarning integratsiyasi ta'lim mazmunini loyihalash usullariga integrativ yondashuvni belgilaydi.

#### **ADABIYOT:**

- Akbarova Z.* O'zbek tilida murojaat shakllari va uning lisoniy tadqiqi: fil.fan.nomz.diss. –Toshkent, 2007, 21-b.
- Musulmanova, N.R.* Ilmiy va ijodiy ish yozish asoslari. O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'limi yo'nalishi uchun o'quv qo'llanma. -Toshkent: OOO "AKTIV PRINT", 2021. –B. 184.
- Musulmanova, N., Xo'jayev, N.* 2023. Tilshunoslikda genderolingvistikaning shakllanish jarayoni. O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya. – Toshkent, №5(1), B. 105-113. <https://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-culture/article/view/55>
- Mo'minov S.* O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: filol. fanlari dokt. ...diss. –Toshkent, 2000.
- Орипов А.* Tanlangan asarlar. – Toshkent, "Sharq", 2019. -B. 228
- Қурбонова М.* Гендеролингвистик тадқиқ янги парадигма сифатида // ЎТА, 2014. №2].
- [Versehueren J.2000. Understanding Pragmatics [M] Beijing: Foreign Language Teaching and Research Press & London: Edward Arnold Publishers Ltd. –B. 313.
- O'zbek tilining izohli lugati, 2 jild. –Toshkent, 2006. –B. 645.
- Vohidov E.* Tanlangan asarlar. – T.: "Sharq", 2019. - B. 361



## MUNDARIJA:

1	<b>Muhammedova S. Shirinova Y.</b> Ko'p tillilik va ko'p madaniyatlilik muhitida o'zbek tilini o'rgatish masalalariga doir.....	3
2	<b>Kadirova X.B.</b> O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda mustaqil ta'limning ahamiyati.....	7
3	<b>Iskandarova G.T.</b> O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'rganishda so'z ma'nolarini o'zlashtirish.....	15
4	<b>Musulmanova N.</b> Filologiya yo'nalishi rusiyzabon guruhlarida o'zbek adabiyoti fanini o'qitishda asar tahlili muammolari.....	21
5	<b>Isayeva Sh.</b> Adabiy o'qish darslarida ruhiyat masalalarining o'rganilishi..	25
6	<b>Do'smuradova Y.</b> Badiiy matnni tahlil qilish tamoyillari.....	31
7	<b>Turakulova O.A.</b> O'zbek tili mashg'ulotlarida adabiy o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning amaliy jihatlari.....	35
8	<b>Məmmədov X. Kadirova X.</b> X(iks)-femik xarakterli özbək və azərbaycan atalar sözlərinin tipoloji xüsusiyyətləri.....	39
9	<b>Elova D.Q.</b> O'zbek tilining rasmiy axborot uslubini yaratishda nutq uslublarining ahamiyati.....	45
10	<b>Abdulkhaimova O.</b> O'zbek muloqot xulqining sotsiologik xususiyatlari.....	56
11	<b>Xo'jayev N.</b> O'zbek tilida murojaat shakllari va ularning gender xoslanishi.....	61
12	<b>Aytniyazova N.</b> O'zbek va qoraqalpoq tillarida oziq-ovqat mavzusidagi maqollarning lingvomadaniy xususiyatlari.....	66
13	<b>Nasirdinova O.</b> Lingvostatistika – tilshunoslikning zamonaviy va amaliy sohasi.....	70
14	<b>Khidoyatova D.A.</b> Views of eastern thinkers on interactive education and its principles.....	75
15	<b>Davronov A.S.</b> O'zbek tilini badiiy filmlar va badiiy adabiyotlar vositasida o'rgatish.....	79
16	<b>Аликулова М.</b> Анализ изучения языка и стиля произведений А.И.Куприна.....	82
17	<b>Bazarova D.B.</b> Ta'lim rus tilida olib boriladigan guruhlarda "o'zbek tilida so'z tarkibi" mavzusini o'rgatish tajribasidan.....	88
18	<b>Yo'ldosheva Y.A.</b> Grafologik tahlil qilish metodikasi.....	91
19	<b>Beysenova A. Kadirova X.</b> Soliq sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlaridagi lingvistik muammolar.....	96
20	<b>Pardayeva M.Ch.</b> Xorijliklarga o'zbek tilini maqsadli o'qitishda yuzaga keladigan muammolar va muqobil yechimlar.....	102
21	<b>Shodmanov T.A.</b> O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda autentik materiallar uchun topshiriqlar tuzish metodlari.....	107
22	<b>Abduqodirova N.</b> Multilingualizm muhitida shakl va ma'no munosabatlarini o'qitishning lingvokulturologik jihatlari.....	112